

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“KUNTUG‘MISH” DOSTONIDA E‘TIQODIY QARASHLARNING VOQEALAR RIVOJIDAGI O‘RNI

Muharram Kamolova

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, tayanch doktorant.

e-mail: muhammadkamolova2007@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-5589-0505>

Annotatsiya.

Xalq dostonlarining avloddan avlodga o‘tib kelishida baxshilarning xizmati beqiyos. Har bir dostonning voqealar rivoji va syujetlar zanjiri baxshining qarashlari va so‘z qo‘llash mahorati asosida quriladi. O‘zbek folklorida “Kuntug‘mish” dostoni badiiy jihatdan mukammal ishlangani va doston aytuvchidan alohida mahorat talab qilishi bilan ajralib turadi. Bularning barchasi baxshining bosh obrazlar bilan bog‘liq tasavvurlari, doston syujetini harakatlantiruvchi motivlari bilan chambarchas bog‘liqligini bildiradi. Mazkur maqolada “Kuntug‘mish” dostonining Ergash Jumanbulbul o‘g‘li tomonidan kuylangan variantida epik qahramonning doston voqealari rivojidagi o‘rni va e‘tiqodiy qarashlar ifodasining o‘ziga xos jihatlari tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: baxshi, motiv, epik ijrochi, kult, e‘tiqod, anbiyo, pir, avliyo, e‘tiqodiy qarash.

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНО-МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ В РАЗВИТИИ СОБЫТИЙ ДАСТАНА «КУНТУГМИШ»

Мухаррам Камолова

Институт узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан, базовый докторант.

Аннотация.

В статье рассматривается роль бaxshi в сохранении и передаче узбекских народных дастанов из поколения в поколение, а также значение традиции эпического исполнительства. На материале варианта дастана «Кунтугмиш», исполненного Эргашем Джуманбулбул угли, анализируются роль эпического героя в развитии сюжета, мотивы, определяющие развитие событий, и особенности художественного воплощения религиозных представлений. Особое внимание уделяется образам культа, пиров и святых, а также их влиянию на судьбу героев и развитие сюжетной линии.

Ключевые слова: бaxshi, мотив, эпический исполнитель, культ, религиозные представления, пророки, пир, святой, религиозное мировоззрение.

THE ROLE OF RELIGIOUS BELIEFS IN THE DEVELOPMENT OF EVENTS IN THE EPIC KUNTUG‘MISH

Muharram Kamolova

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Basic Doctoral Student.

Abstract.

The service of the bakhshis in the transmission of folk epics from generation to generation is incomparable. The development of events and the chain of plots of each epic are built on the basis of the bakhshi's views and the skill of using words. In Uzbek folklore, the epic "Kuntug'mish" is distinguished by its artistic perfection and the special skill required from the narrator. All this indicates that the bakhshi's ideas about the main characters are closely connected with the motives that drive the plot of the epic. This article examines the role of the epic hero in the development of the epic events and the specific aspects of the expression of religious views in the version of the epic "Kuntug'mish" sung by Ergash Jumanbulbul oglu.

Keywords: bakhshi, motif, epic performer, cult, faith, prophets, pir, saint, religious view.

Kirish. Xalq og'zaki ijodida doston yaratishning o'z qonuniyatlari mavjud. Uning og'zakligi, variantligi, ommaviyligi va an'analar asosida yaratilishi hamda og'zaki ijro uslubi baxshidan alohida iqtidor va badihago'ylikni ham talab qiladi. Baxshidagi so'z san'ati, betakror o'xshatishlar, obraz va motivlar talqinidagi alohida yondashuvlar bilan ajralib turadigan o'zbek xalq dostonlaridan biri **"Kuntug'mish"** dostonidir. Bu doston o'zbek folklorida alohida badiiy yetukligi, takrorlanmas o'xshatishlarning qo'llanganligi, har bir obraz va ularning portretiga alohida yondashilganligi, syujetlarni harakatga keltiruvchi motivlarga alohida e'tibor qaratilganligi, qolaversa, she'riy parchalardagi qofiyalarning rang-barangligi, radiflarning takrorlanmasligi, xalq maqollari va aforizm darajasiga ko'tarilgan misralarning dostonning badiiy qimmatini oshirish uchun xizmat qilganligi bilan doston aytuvchining alohida iqtidor egasi, yuksak ilm sohibi, nafaqat og'zaki ijod, balki yozma adabiyotning ham puxta bilimdoni ekanligidan dalolat beradi.

"Kuntug'mish" dostonining Ergash Jumanbulbul o'g'li varianti Nurmon Abduvov o'g'li, Islom shoir Nazar o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Egamberdi Ollomurod o'g'li, Zohir shoir Qo'chqor o'g'li, Alim baxshi Haqqulov, Ro'zimbek Murodov, Qodir baxshi Rahimov kabi baxshilardan yozib olingan variantlaridan yuksak badiiy qiymati, baxshi dunyoqarashining har bir doston qahramonida betakror aksi va doston syujetini rivojlantirishga xizmat qilgan motivlarga alohida yondashilganligi bilan ajralib turadi. Dostondagi yordamchi epizodlardan tortib asosiy qahramonlargacha tarixiy asoslarga ega joy nomlariga alohida badiiy topilma sifatida qaralgan. Dostondagi e'tiqodiy qarashlar syujetlar zanjiriga ta'sir ko'rsatmay qolmagan, xususan, shart motivi, sinov motivlari dostondagi alohida xarakter sifatida tasvirlangan Buvraxon va Xolbeka o'rtasidagi ayni ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar davrida Kuntug'mishning doston markazida gavdalanishi va yordamchi obrazlar — darvozabon, bozordagi kalava sotuvchi kampir hamda Xolbeka kanizi Zamongul bilan uchrashuv epizodlarida Kuntug'mishning vafodorligi, mardligiga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, dostonda Ergash Jumanbulbul Kuntug'mish portretiga alohida yondashadi:

O'zi sardor ekan, sardor saboqli,
Ot ustiga mingan kuni o'moqli,
Xaloyiqqa yomon kuni kerakli,
Qarchig'ay kelbatligi, burgut qaboqli,
Yigitning lochinini ko'rdim, buvishim. [12]

Xolbeka kanizi tomonidan keltirilgan bu ta'rif doston o'quvchisining ko'z oldida Kuntug'mishni yaqqol gavdalandiradi. Puxta ishlangan bu portret ortida baxshining yuksak badiiy mahorati va so'z bilimdoni ekanligi turadi. Dostonlarda epik qahramonning tashqi qiyofasi bilan birga baxshi ularning ma'naviy olami tasviriga ham e'tiborli bo'ladi. **"Kuntug'mish"** dostonida sinov motivi orqali Ergash Jumanbulbul bosh qahramonlarning zehni o'tkirligi, shijoati, sabri va mardligiga alohida urg'u beradi. Bu jarayon Buvraxonning jallodlari Xolbeka va Kuntug'mishni bandi qilgan syujetlar zanjirida kulminatsion nuqtaga chiqadi. Baxshi bu o'rinda or-nomus, oriyat masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Xolbeka kanizi o'z qahramonining xon jallodlaridan gunohini o'tishini so'rab yalinishi Qoraxon o'g'li oriyatiga tegadi va buni bosh qahramon tilidan betakror ifodalar orqali yetkazadi:

Ayo nozim, bir gapim bor, anglab ol,
Men so'zlayin, zehningni qo'y, quloq sol.
Jallodlarga elanmagan bo'yingdan,
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol.
Yomonning qarori bo'lmas bir yerda,
Kishiga kasodi tegar tor yerda.
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol,
Zarning qadrin zargar bilar har yerda. [2; 12-b.]

Folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov dostonlarda baxshi obrazining badiiy talqini haqida so'z yuritarkan, ularni uch guruhga ajratadi: **"Ijodkor baxshi obrazining epik matndagi talqini borasidagi matnlar tahlilidan kelib chiqib, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:**

1. Epik ijrochi yetakchi obraz darajasiga ko'tarilgan namunalar;
2. Epik ijrochi asar qahramonlarining ko'makchisi sifatida tasvirlangan namunalar;
3. Epik ijrochi epizodik ko'rinishda namoyon bo'lgan namunalar."

Dostondagi yetakchi obraz Kuntug'mish orqali baxshi ichki olamining badiiy ifodasini ko'rish mumkin. Ergash Jumanbulbul hayotidagi sinovlarda toblangan shaxs portreti bevosita doston qahramoniga ko'chadi. Kuntug'mishning Qoraxonning o'g'li sifatida Zangar shahriga ayni konfliktlar avj olgan pallada kirib kelishi, Xolbeka kanizining shartini o'tkir zehn va kuchli iroda sohibi sifatida yengib o'tishi, qolaversa, ularning Mug'ol tog'idagi uch yildan ortiq vaqt mobaynida turli azob va uqubatlarga bardosh berishi ma'naviy komil inson sifatida shakllanishida asosiy funksiyani bajaradi. Dostondagi ikki qahramonning jazodan eson-omon qutilishi, tog'da makon tutishi va egiz farzandli bo'lish voqealari g'oyatda xarakterli tasvirlangan. Dostonda Xolbeka shunchaki oddiy malika emas, u sinovlarda toblangan, ikki norasida farzandiga nisbatan ona muhabbatining tengsizligi timsolidir. Uning Mug'ol tog'ida go'daklariga suv va non topolmay qiynalgan holati tengsiz badiiy topilma sifatida tasvirlangan. Bu holatlar beixtiyor Ibrohim (alayhissalom)ning ayoli Hojarning o'g'li Ismoil bilan Makkayi mukarramada hijrat qilib, suvsiz qolgan go'dagiga Hojarning Safo va Marva tepaliklari orasida yugurib suv qidirib, aynan Ismoil (alayhissalom)ning oyog'i ostidan suv chiqishi rivoyatini eslatadi. Baxshi Ergash Jumanbulbulning 1884–1885-yillarda Buxoroning Mir Arab madrasasida tahsil olganini biz uning hayot yo'lidan yaxshi bilamiz. Undagi bu ta'lim ta'siri o'z-o'zidan uning repertuaridagi dostonlar badiiy qimmatini oshirishga ham ta'sir qiladi. Ergash ota oddiy baxshi emas, u so'zni chertib ishlatadigan, badiiy qimmatning qadriga yetadigan, majoz va ramzni o'z o'rniga qo'ya oladigan betakror so'z ustasidir. Dostonda Xolbeka kanizining farzandlariga bo'lgan cheksiz

mehri tasvirini baxshi mohirlik bilan chizadi. **“Xolbeka oyim oftobning issig’idan bolalarini toshning soyasiga yotqizib, go’daklarning xalqumi kuyinib, laylak qushdek chirpinib, goh bunisining og’ziga, goh bunisining og’ziga tupugini solib o’tirib edi.”** [5; 57-b.] Farzandining tirik qolishi uchun jon jahdi bilan harakat qilgan Xolbeka oyim tasviri Hojarning o’g’li Ismoil uchun ikki tog’ orasida iltijo bilan Yaratganga qilgan munajatini esga soladi.

Doston voqealari rivojida tush motivining o’rni beqiyos. Baxshi syujet davomida uch o’rinda bu motivdan foydalanadi. Dastavval, Ergash shoir tushga oddiy voqea sifatida emas, uning rahmoniyligi va kishi hayotida alohida ahamiyatga egaligini uqtiradi. **“Kunlardan bir kun Xolbeka noz uyquda yotib edi, bir tush ko’rdi: chiltanlar va mardon g’oyiblar bir tongda suhbat qilib o’tirib edi, bir chiltan kelib Xolbekaning ruhini olib bordi, bittasi kelib No’g’oyning to’rasi Kuntug’mishning ruhini olib bordi, chiltanlar to’y qilib, ikki chiltan so’rag’ich bo’lib, Hazrati Vaysiy Qironni vakilota qilib, Hazrati Umar xutbasini o’qib, Xolbekani to’raga topshirdilar.”** [2; 21-b.] Doston voqealari rivojiga sabab bo’luvchi bu rahmoniy tush bir necha vazifalarni bajaradi. Birinchidan, qahramonlarning keyingi hayotidagi voqealarga ishora qilgan bo’lsa, ikkinchidan, har ikkala bosh epizodning shunchaki oddiy shaxslar emas, balki nazarkarda insonlarning farzandi ekanligiga ham ishora bor. Uchinchidan, bu motiv dostonidagi keyingi Xolbekaning Yaratganga tavakkal qilib suvga oqizgan sandiq voqeasiga ham turtki bo’lgan. Bu voqealar orqali baxshi hayotdagi o’zgarishlar va ziddiyatlarning yechimi sifatida Yaratganga ishonib, imyon keltirib tavakkal qilishga ham alohida urg’u bergan. Dostonda Kuntug’mishning uch kun davomida farzandli bo’lganidan so’ng otasini tinmay tush ko’rishi yaqinlaridan bo’lgan xavotir kishilarga tush orqali ham sezilishiga shoir e’tibor qaratgan.

Mard o’g’lonman, savdo tushdi boshima,
O’zim yolg’iz, hech kimim yo’q qoshima.
Hayron edim bu ishima bo’yingdan,
Uch kun bo’ldi otam kirar tushima. [2; 68-b.]

Yirik epik asarlarda tush motivi bir necha vazifalarni bajaradi. U nafaqat keyingi voqealarga ishora, balki yaqinlaridagi xavotir va kutilayotgan xatarlardan ogohlantirish vazifasini ham bajaradi. Folklorshunos olim J. Eshonqulov tadqiqotlarida: **“Doston syujeti va voqealar bayoniga aloqadorligiga ko’ra tush ikki guruhga bo’lingan: birinchisi, butun asar davomida o’z tasdig’ini topib boruvchi, qahramonlar hayoti va taqdirini deyarli to’la qamrovchi tushlar; ikkinchisi, syujet xalqlarining ma’lum bo’g’irlari, qahramonlar hayotining u yoki bu davriga taalluqli tushlar”** [3; 168-b.]. **“Kuntug’mish”** dostonida birinchi guruhga mansub tushlarning yorqin namunasi sifatida To’ra va Xolbekaning uzuk almashishiga sabab bo’lgan rahmoniy tushni keltirish mumkin. Sababi bu tush ikkala obrazning ham hayot tarzi va taqdirini butkul o’zgartiradi, keyingi voqealar zanjiri uchun aynan dastlabki tush syujeti turtki bo’ladi.

Dostonda Kuntug’mish el daragini topish uchun non va suv ilinjida yo’lga otlanganda Xolbeka ko’rgan tushi orqali uni xavfdan ogoh qilishga urinadi. Dostonda syujetlar ketma-ketligining ma’lum bir qismlari va qahramonlarning keyingi hayotiga oid tush motivi ularga keladigan xavfdan ogohlantirish vazifasini bajaradi. **“Ey sanamjon, uch kundan beri otam kunda tushimga kirar edi, men hayron edimki, nega bunday qildi u, deb. Endi xotirim jam bo’ldi. Shu go’daklar uchun aylanib yurgan ekan.”** Shahzodaning bu ko’rgan tushida otasi orqali uning boshiga keladigan sinov va xatarlardan ogohlantirish vazifasi aynan dostonidagi ikkinchi tush epizodiga yuklangan. Chunki non va suv daragini topish uchun chiqqan To’raning Azbarxo’ja sababli boshiga tushadigan musibatlardan aynan otasi orqali ogohlantirilishi, Xolbekaning sahar mardonda ko’rgan tushini va ta’birini aytib Kuntug’mishni ogohlantirishi bu doston qahramonining homiyar himoyasidagi insonligidan dalolatdir. Xolbekaning Azbarxo’ja bilan uchrashuvi va To’rasining boshiga tushadigan musibatlardan ogoh etish sifatida ko’rgan tushi baxshi tomonidan quyidagicha berilgan:

Yotib edim, vallamatim, tush ko’rdim,
Men tushimda bir qabohat ish ko’rdim,
Mabodo ko’nglingga og’ir olmasang,
Ikki qanoti mayib bo’lgan qush ko’rdim.
Vaqt tong ko’ribman, mard To’ram, tushdi,
Bu tushdan ko’nglim aylar xurushdi.
Tushimda qo’lingdan shunqoring qochdi,
Bordi-da sayodning to’riga tushdi,
Mabodo ko’nglingga og’ir olmasang,
Ikki birdan yongan chirog’ing o’chdi...
Ko’nglingdan uchirgan turna g’ozingdir,
Endi senga duo qilmoq lozimdir,
Ikki qanoti mayib bo’lgan — o’zingdir,
Qochgan shunqor — sho’rli sarvinozingdir,
O’chgan chiroq — ikki birdan ko’zingdir. [2; 84-b.]

Xolbekaning ko’rgan tushini o’z ta’biri bilan keltirishi shahzodaning keyingi xavf-xatardan ogohlantirilishidir. Aynan shu orqali baxshi Kuntug’mishning keyingi — ajdarni yengishi va tosh bostirilgan kigizdan omon chiqishi kabi qahramonliklariga yo’l ochib beradi.

Dostonidagi Davlatqushi obrazi o’zbek xalqining qush kultiga bo’lgan munosabatini ifodalaydi. Qushning afsonaviy xususiyati bilan bog’liq xalq qarashlari, aynan davlat egasi, ya’ni podshohni tanlashda qushga ishonishni mujassamlashtirgan epik motivlarning tub ildizlari xalqning animistik tasavvurlariga borib bog’lanadi. Dostonning boshqa variantida Xizr alayhissalomning qush parini berib, qiyin vaziyatda qolganida shu par orqali yordamga

chaqirishi uchraydi. Ergash Jumanbulbul o'g'li variantida esa qushga davlatning egasini tanlash vazifasi yuklanadi. Aynan Qalandarxonning qush tomonidan yurtning egasi sifatida tanlanishida xalqning qadimiy tasavvurlari asosida yaratilgan animistik miflarga bo'lgan ishonchi va bu miflarning arxaik shakllari ****"Avesto"****dagi **Bahramyasht**ning 16-faslida tasvirlangan **Varag'n** nomli qushga bo'lgan ishonchga borib taqaladi. Zardusht Ahuramazdaga savol berib, **"Dushmanning jodusidan sehlaniib qolganimda, qutilmoqning chorasi bormi?"** deb so'raganda, u shunday deb javob beradi:

Qanoti keng Varag'n,
Qushning oltin patina
Patini ol, ey Zardusht,
Astoydil qilib ixlos,
U bilan taning siylab,
Dushmanning jodusidan,
Bo'larsan butkul xalos. [1; 76-b.]

Bu qarashlar islomgacha bo'lgan davrda xalqning yagona mukammal dinga o'tish davrigacha bosqichli e'tiqodlarni boshdan kechirganining dalolatidir. **"Kuntug'mish"** dostonida baxshining epik qahramon sifatida obrazlar tilidan keltirgan munojotlari Xolbeka, Gurkiboy va aynan Kuntug'mish tilidan berilishi asosiy qahramonlarning ham diniy, ham dunyoviy jihatdan komil insonlar darajasida tasvirlanishining dalilidir. Bu holatni dastavval tulupdan omon chiqib, Xudoga payg'ambarlarning nomini shafe keltirib yolvorishida ko'rishimiz mumkin:

Elimdan bo'ldim judo,
Bu jonim senga fido,
Adashganda yo'lga sol,
Otingdan, Qodir Xudo...
Belimda zarrin po'ta,
Qilganim bo'ldi xato,
Adashganda qo'lim ol,
Bolam deb Odam Ato. [2; 59-b.]

Yuqoridagi baytdan ham ko'rinib turibdiki, avval Yaratganga munojot qilib, so'ng yer yuzida yashagan birinchi inson **Abul Bashar** (insoniyatning otasi bo'lmish Safiulloh — Ollohning sof quli Odam Ato)ga yordam so'rab yuzlanilgan. Keyingi baytlarda baxshi epik qahramoni orqali barcha ulug' anbiyolarning nomini birma-bir shafe keltiradi. Chunki insoniyat og'ir vaziyatlarda faqat rahmoniy kuchlardan madad kutadi.

Sensan, qulning matlabi,
Ko'pdir bandaning gapi.
Adashganda qo'limni ol,
Otingdan Nuhi nabiy.
Kiyganing o'zi harir,
Do'stim deb suyding Jalil.
Adashganda qo'limni ol,
Oting Ibrohim Xalil.
Har ma'niga sen qoyil,
Hidoyat qil, Jabroil.
Adashganda qo'limni ol,
Otingizdir Ismoil.
Qilma cho'lingda xatar,
Bo'lg'aysiz menga rahbar.
Adashganda qo'limni ol,
Ishoq, Yoqub payg'ambar. [2; 59-b.]

Munojotlarning to'rtinchi misrasiga e'tibor qaratilsa, sinovlarda sinalgan va bu sinovlardan Yaratganga bo'lgan sabr va mukammal iymoni bilan payg'ambarlar nomiga birma-bir urg'u berilgan. Odam Ato bani basharga insoniyatning otasi sifatida tanilib, shaytonni yengish yo'lida murakkab sinovlarda toblanib, **"Ollohning sof quli"** maqomiga erishgan bo'lsa, Nuh alayhissalom ****"Qisasi Rabg'uziy"****da islomiyatdan oldin o'tgan payg'ambarlardan biri sifatida boqiy hayot timsoli, **"Odamiy Soniy"** nomi bilan ulug'langan. U tarixda Yaratganga iymon keltirganlarni to'fondan asrab qolgan payg'ambar sifatida ulug'lanadi. Ollohning do'sti sifatida e'tirof etilgan Ibrohim alayhissalomga Kuntug'mishning yuzlanishi bu payg'ambarning Yaratganning eng yaqin do'sti, muhibi ekanligining dalilidir. Ismoil, Ishoq, Yoqub payg'ambarlar Qur'onda nomi zikr qilingan Ibrohim alayhissalomning o'g'illari bo'lib, ular tarixda uzoq umr ko'rgan, shu ko'rgan umrini adashganlarni Yaratganga da'vat qilishga undagan payg'ambarlar sifatida nom qoldirishgan. Tarixda payg'ambarlarning vazifasi asosiy maqsaddan chalg'igan, o'zini Yaratgan zot qolib, turli ashyo, hayvon, but va sanamlarga sig'ingan kishilarni hidoyat yo'lga chaqirish bo'lgan. Munojotning keyingi bandlariga e'tibor qaratsak, payg'ambarlardan Qur'onda nomi zikr qilingan Yusuf, Muso, Iso, Muhammad (s.a.v.) va chahoryorlar, avliyolar nomini ko'rishimiz mumkin. Bu orqali baxshi o'z qarashlarini epik qahramon orqali ifoda qilgan. Dostonda Kuntug'mish og'ir sinovlar oldidan Yaratgan va uning payg'ambarlariga bir necha bor yukunadi. Xususan, ajdarni yengishdan oldin barcha anbiyo, pir va avliyolarni shafe keltirishi, Xolbeka savdogarlar bandi qilib olib ketayotganda Yaratganga qaratilgan munojoti, shuningdek, onaning farzandlarini ota yurti No'g'ayga jo'natishidan oldin qilgan pand-nasihatlarida ham

islomiy farz va sunnatlarga alohida e'tibor qaratganligi, Qur'onni hamroh tutishga uqtirishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu munajatlar faqatgina Kuntug'mish va Xolbeka nutqida emas, balki komillik sari intilayotgan va dor ostida turib jasorat ko'rsatgan Gurkiboyning nutqida ham keltiriladi:

Avval, Odam Ato kelib bosh bilan,
Yuzin yuvdi ko'zdin oqqan yosh bilan,
Hobil, Qobilni urib tosh bilan,
Qon to'kilmoqlik azaldandir, enajon.
Ibrohim xalilga farmon ayladi,
Ismoilning boshini qurbon ayladi,
Hazrati Yoqubni hayron ayladi,
Yig'latib ko'z yoshini qon ayladi,
Zulm ko'rmoq azaldandir, enajon. [2; 154-b.]

Dostonda kulminatsion nuqta hisoblangan Xolbekaning dorga yukunish epizodi islomgacha bo'lgan davrda xalqning jonsiz predmetlar, toshlar va boshqa ashyolardan asrashni tilanish kultidir. Jabrdiyda ona endi yetishgan farzandining omon qolishi uchun dordan osmasligini tilanadi va avliyolarning nomini shafe keltirib, farzandlarining omon qolishini so'raydi.

Shonaman, taralar qizlarning sochi,
Madad qiling, Bobo Zangi podachi.
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalomu alaykum, dorning og'ochi.
Uzoqda bollarning manzil-diyori,
Zor yig'laydi enasi, ich kuyari.
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalomu alaykum, Mansurning dori. [2; 153-b.]

Xulosa qilib aytganda, "Kuntug'mish" dostonida baxshi dunyoqarashining boyligi, xalqona tafakkur va badiiy-estetik qarashlarning o'ziga xos hamda betakror ifodasi yorqin namoyon bo'ladi. Epik ijodkor voqealar rivojini tasvirlash jarayonida qahramonlarning xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari, o'zaro munosabatlari va nutqiy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Doston qahramonlarining har bir so'zi, qarori va harakati ularning xarakterini ochish, ma'naviy qiyofasini yoritish hamda asarning asosiy g'oyaviy mazmunini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, baxshi faqat voqealarni bayon qiluvchi ijodkor emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik ideallari va axloqiy qarashlarini badiiy shaklda ifodalovchi ijodiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Dostonda mardlik, sadoqat, muhabbat, vafo, sabr-toqat, or-nomus va adolat kabi umuminsoniy fazilatlar qahramonlar taqdiri va faoliyati orqali yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Obrazlarning qiyosiy o'rganilishi ularning umumiy va individual xususiyatlarini aniqlash, xarakterlar o'rtasidagi farq va mushtarakliklarni ochib berish imkonini beradi. Shuningdek, doston tarkibidagi motivlarning mazmuniy va funksional tahlili xalqning qadimiy tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini hamda ijtimoiy qarashlarini anglashda muhim ahamiyatga ega. "Kuntug'mish" dostonining badiiyati xalqona iboralar, takrorlar, mubolag'alar, o'xshatishlar, sifatlashlar va ramziy obrazlarning faol qo'llanishi bilan ajralib turadi. Mazkur tasviriy vositalar asarning poetik jozibasini oshirib, voqealar va obrazlarning o'quvchi tasavvurida jonli gavdalanishini ta'minlaydi. Shu sababli dostonni obrazlar tizimi, motivlar talqini, til va uslub xususiyatlari hamda baxshi mahorati nuqtayi nazaridan o'rganish xalq eposining g'oyaviy-badiiy mohiyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avesto. Baxranyasht (Varaxran alqovi) // O'zbekiston tili va adabiyoti. – Toshkent, 2000. – No. 2.
2. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. 9-tom. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
3. Tantoviy M. S. Payg'ambarlar tarixi. – Toshkent: Matbaachi, 2022.
4. Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni. Tadqiqotlar. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 1971.
5. Eshonqulov J. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent, 2011.
6. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999.